

SOG'LIQNI SAQLASHDA BOSHQARUVNING ROLI VA AHAMIYATI

Abduraxmanov Shaxriyor Zafar o'g'li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Menejment : Sog'liqni saqlash menejmenti

fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotasiya: Bugungi kunda aholi salomatligini muhofazalash faqat sog'liqni saqlash tashkilotlarining vazifasi emasligi hammamizga ma'lum. Bu umuman davlat, jamiyat ishi, ammo bu jarayonni boshqarishda sog'liqni saqlash tizimi, muhim birlashtiruvchi, koordinatsiyalashtiruvchi rolni o'ynaydi. Jamoat sog'lig'ini saqlash, aniq aholi guruhining ehtiyojlaridan kelib chiqib keng qamrovli sog'liqni saqlash xizmatini tashkil etishdan iborat. Shuning uchun ham aholi salomatligi holatidan kelib chiqqan holda, tegishli resurslarni aniqlash bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi. Demak, Jamoat sog'lig'ini saqlashning mohiyati aholi salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, tashxislash va davolash, hamda jismoniy, ijtimoiy va kasbiy joylashtirish maqsadida kadrlarni, tibbiy xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan turli tibbiyot apparatlari, asboblari aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: Sog'liqni saqlash , sog'liqni muhofaza qilish , sog'liqni saqlash sohasi , bozor munosabatlari , davlat epidemiologiya xizmati , tibbiy kadrlar tayyorlash , salomatlik instituti , boshqarishning asosiy maqsadi , boshqaruvdagi muammolar .

Аннотация: Сегодня все мы знаем, что охрана здоровья населения – это не только задача организаций здравоохранения. В целом это работа государства и общества, но важную объединяющую и координирующую роль в управлении этим процессом играет система здравоохранения. Общественное здравоохранение – это оказание комплексной медицинской помощи с учетом потребностей определенной группы населения. Поэтому, исходя из состояния здоровья населения, необходимо иметь информацию об определении соответствующих ресурсов. Поэтому сущностью охраны здоровья населения является укрепление здоровья населения, профилактика, диагностика и лечение заболеваний, а также определение кадров, различных медицинских приборов и средств, необходимых для оказания медицинских услуг с целью физического, социального и профессионального размещение.



Ключевые слова : *Здравоохранение, охрана здоровья, сфера здравоохранения, рыночные отношения, государственная эпидемиологическая служба, подготовка медицинских кадров, институт здравоохранения, основная цель управления, проблемы управления.*

Annotation: *Today, we all know that the protection of public health is not only the task of healthcare organizations. In general, this is the work of the state and society, but the health system plays an important unifying and coordinating role in managing this process. Public health is the provision of comprehensive health care based on the needs of a specific population group. Therefore, based on the state of public health, it is necessary to have information on determining the appropriate resources. Therefore, the essence of public health care is to strengthen the health of the population, prevent, diagnose and treat diseases, as well as determine the personnel, various medical devices and tools necessary for the provision of medical services for the purpose of physical, social and professional placement.*

Key words: *Health care, health protection, health sector, market relations, state epidemiology service, training of medical personnel, health institute, the main goal of management, management problems.*

KIRISH

Sog'liqni saqlash - aholi sog'lig'ini muhofaza qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sog'liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog'lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko'rishni ta'minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni ko'zda tutadi; uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko'rsatishdan iborat.

JSST tashkilotining ta'rificha Sog'liqni saqlash tizimi - bu uyda, ta'lim muassasalarida, ish joyida, jamoada, jismoniy va ruhiy ijtimoiy doiralarda, hamda sog'liqni saqlash va u bilan bog'liq muassasalarda amalga oshiriladigan, salomatlikni mustahkamlashga yordam beruvchi bir – biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan chora tadbirlar yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlari yig'indisidan iborat yagona sog'liqni saqlash tizimi amal qiladi.

Har qaysi davlat o'z aholisining salomatligini saqlash masalalariga alohida e'tibor beradi. Aholining salomatligi nafaqat davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi bilan bir qatorda, davlatning sog'liqni saqlash tizimi oqilona va rejalashtirilgan tizimda faoliyat olib bormog'i lozim. Bu tizimni olib borish uchun Sog'liqni saqlashda boshqaruv faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. "Sog'liqni saqlash tizimini





monopoliyadan chiqarishning asosiy ko'rinishlaridan biri turli mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar uyushmasini, assotsiatsiyasini tashkil etilayotganligidir ". [1]

Tarix fanidan bizga ma'lumki , buyuk bobokalonimiz Amir Temur ham aholisining salomatligini saqlash uchun oqilona rejalashtirilgan sog'liqni saqlash tizimini ishlab chiqib , uni bajarilishini nazorat qilgan.

Sog'liqni saqlash Sharqda, xususan O'zbekistonda uzoq tarixga ega. Ayniqsa o'rta asrda bu hududda tabobat ilmida yuqori bosqichlarga erishildi. Ayni vaqtda Sharq mutafakkirlari tabobat ilmidan olamshumul asarlar yaratganlar. Bu borada Abu Rayhon Beruniyning "Tibbiyotda dorishunoslik" ("Kitob assaydana fittib"), Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" ("Al Qonun fittib") asarlari mashhur bo'lib, jahon tabobatida uzoq davrlar mobaynida asosiy qo'llanma bo'lib kelgan. Ayniqsa, Abu Ali Ibn Sino davolashning yangi usullarini qo'llab tabib (hakim) sifatida o'z davrida juda mashhur bo'ldi. Keyingi davrlarda ham tabiblik Turkistonda sog'liqni saqlashning asosiy shakli bo'lib keldi. Tabiblar madrasalarda ta'lim olishgan yoki ustoz-shogirdlik yo'li bilan turli kasalliklarga, singan-chiqqanlar, yara-chaqalarga davo qilishni, xastaliklarning oldini olishni o'rganishgan. Ularning ko'plari nafaqat bemorlarni davolash, balki doridarmonlar tayyorlash bilan ham shug'ullanganlar. Sohibqiron Amir Temur boshqa ma'rifiy ishlar qatori aholi salomatligini muhofaza qilish ularning salomatligiga alohida e'tibor bergan. Boshqa mamlakatlar mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelib, maxsus shifoxonalar ochgan.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri tibbiy yordam modelining tashkiliy strukturasi bilan bog'liq bo'lgan jamiyatning bevosita va bilvosita yo'qotishlarini kamaytirish maqsadida Sog'liqni saqlash tizimini intensiv rivojlantirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish maqsadida yangi iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqishdir. Bu esa o'z navbatida tibbiy xizmatni restrukturizatsiya qilish va tibbiy xizmat ko'rsatishning yangi usullarini keng tadbqiq etishni talab qiladi.[2]

Bozor munosabatlariga o'tish Sog'liqni saqlash sohasiga ham yangi talablar qo'ydi. Xususan, ma'muriy boshqarish sarf harajatlarini kamaytirish; bemorlarni davolash jarayonida kunduzgi kam harajat va samarali usullardan foydalanish; shifoxonalar ish hajmining bir qismini poliklinikaga ko'chirish, kam samarali o'rinlar sonini qisqartirish; shartnoma asosida bajariladigan ishlar uchun haq olish va boshqa choralar ko'rilmogda.

Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish ko'p jihatdan davlat epidemiologiya xizmati faoliyatiga bog'liq. O'zbekistonda sanitariya epidemiologiya stansiyalari va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliy-uslubiy va





muvofiglashtiruvchi ishlarini olib boradigan "Salomatlik" markazlari bu vazifani amalga oshirmoqda.

Respublikada "Salomatlik" instituti, uning viloyatlar va shaharlardagi shoxobchalari radio va televideniye hamda matbuotdan foydalangan holda aholi o'rtasida sanitariya-gigiyenaga oid bilimlarni keng targ'ib qilib boradi.

Bolalarga ixtisoslashgan tibbiy yordam beruvchi muassasalar tarmog'i barpo etildi. Respublikada ishlab chiqilgan "Sog'lom avlod uchun" dasturi avvalo muntazam o'tkazib turiladigan tibbiy tekshirishlar asosida salomatligi zaif va kasalmand maktab o'quvchilari va o'smirlarni aniklab, ularni va umuman yosh avlodni sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirib borishni ko'zda tutadi.

1998-yildan Sog'liqni saqlashning rivojlanishida yangi davr boshlandi — 1998-yil 10 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1998—2005-yillarda Sog'liqni saqlash tizimini qayta qurish Davlat dasturi qabul qilindi. Unda mamlakat aholisiga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish tadbirlari ko'rsatib berildi. Bu dastur asosida Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inini mustahkamlash va umumiy vrachlik amaliyotini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Hamma viloyatlarda QVPning keng tarmoklari tashkil etildi, natijada ikki bosqichli, ya'ni QVP hamda tuman markaziy shifoxonasi orqali tibbiy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Mazkur ishlar Jahon banki bilan hamkorlikda "Salomatlik" loyihasi asosida amalga oshirildi. Bu Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va umumiy amaliy tibbiy xodimlar tayyorlash imkonini berdi.

Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimining yangi shakli joriy etildi. Natijada mamlakatning hamma hududlarida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishga, uyga vrach chaqirish bilan malakali tibbiy yordam ko'rsatish o'rtasidagi vaqtni ancha qisqartirishga muvaffaq bo'lindi. Tibbiy kadrlar tayyorlashda ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati 7 yilga uzaytirilib, bakalavr va magistrilar, shuningdek, oliy malakali tibbiy hamshiralar — hamshiralar ishi bakalavrlari tayyorlanadigan bo'ldi.

O'zbekistonda aholi salomatligini saqlash va yanada mustahkamlash davlatning muhim tibbiy – ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi va davlatning boshqa qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topgan. Aholi salomatligini saqlashning barcha qirralari 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunida to'lig'icha o'z aksini topgan.

Boshqarishning asosiy maqsadi jamiyatning moddiy - ma'naviy ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida ijtimoiy munosabatlarini ko'pgina





qiyinchiliklar, to'siqlar , muammolarga duch kelish mumkin. Boshqaruv jarayoni tarkibi jihatidan o'zaro bog'liq va to'xtovsiz davom etadigan siklni tashkil etadi va u bir necha bosqichlardan iborat:

1. Maqsadni aniqlash, muammolarni tahlil etish va qarorlar qabul qilish.
2. Qabul qilingan karorni amalga oshishini ta'minlash.
3. Qarorni bajarilishini nazorat qilish.
4. Olingan natijalarni taxlil qilish, baholash.

Sog'liqni saqlashni tashkil qilish- sog'liqni saqlashni boshqarishning ilmiy asoslangan optimal usullarini, turli tibbiy muassasalar ish faoliyatining yangi forma va uslublarini, tibbiy xizmat sifatini yaxshilashni, iqtisodiy va boshqaruvdagi muammolarni hal qilish yo'llarini ishlab chiqadi va jamoat salomatligining uzluksiz bir bo'lagi hisoblanadi. Shunday qilib, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkillashtirish - bu jamiyat salomatligi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, uning asosiy yo'llanmasi - bu aholi salomatligi holatini ilmiy asoslab berish, jamoat salomatlik holatini darajasini ko'tarish va ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash maqsadida sog'liqni saqlash tizimini samarali boshqaruvini tashkillashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR:

1. M.B. Atoeva . Sog'liqni saqlash menejmenti va iqtisodiyoti fani o'quv-uslubiy majmuasi magistratura boqichining barcha mutaxassisliklari uchun (Ushbu ishchi dastur o'quv dasturi va o'quv reja asosida 5510700 –davolash ishi yo'nalishi bo'yicha tuzilgan va Buxoro davlat tibbiyot instituti markaziy uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan)-Buxoro ,2019.-B.8
2. Sh.T.Iskandarova, N.M.Maxmudova . Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish bo'yicha o'quv qo'llanma-T,2011.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sog'liqni_saqlash

